

## MUNZIM KIM EDI?

**Beshimov Maqsud Komilovich**

BuxDU o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Buxorodan yetishib chiqqan ma'rifatparvarlardan bo'lgan Mirzo Abdulvohid Burxonov to'g'risida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, Abdulvohid Munzimning hayot yo'li va ijodiy faoliyati haqida jumladan, Buxorodagi birinchi jaded maktabining tashkil etilishi hamda "Tarbiyai atfol" jamiyatining faoliyati haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Abdulvohid Munzim, "Tarixi amironi mang'itiyai Buxoro", "Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar", Mukammil Burhonov, Sadriddin Ayniy, Usmonxo'ja Po'latxo'jayev, «Tarbiyayi atfol», «Yosh buxoroliklar», «Tojikistoni surx»

## КЕМ БЫЛ МУНЗИМ?

**Аннотация:** В данной статье содержится ценная информация о Мирзо Абдулвахиде Бурханове, одном из интеллигентов, выросших в Бухаре. Также рассказывается о жизненном пути и творческой деятельности Абдулвахиды Мунзима, в том числе о создании в Бухаре первой джадской школы и деятельности общества «Тарбияи атфол».

**Ключевые слова:** Абдулвахид Мунзим, «Тарихи амирони мангитияи Бухара», «Материалы для истории Бухарской революции», Мукамил Бурханов, Садриддин Айний, Усмонходжа Полатходжаев, «Тарбияи атфол», «Молодые бухарцы», «Таджикистан суркх».

## WHO WAS MUNZIM?

**Abstract:** This article contains valuable information about Mirzo Abdulvahid Burkhanov, one of the intellectuals who grew up in Bukhara. It also talks about the life path and creative activity of Abdulvahid Munzim, including the establishment of the first jaded school in Bukhara and the activities of the Tarbiyai atfol society.

**Key words:** Abdulvahid Munzim, "Tarihi amironi mangitiyai Bukhara", "Materials for the history of the Bukhara revolution", Mukammil Burkhanov, Sadriddin Ainiy, Usmonkhoja Polathojayev, "Tarbiyai atfol", "Young bukharians", "Tajikistan surkh"

### KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION)



XX asr boshlarida Buxoroda vujudga kelgan, o‘z safida yetuk, ilg‘or va talantli taraqqiyparvarlarni birlashtirgan Yosh buxoroliklar harakati tarixida, Buxorodagi jadidchilik harakatining taniqli namoyandalaridan, yangi usul maktablari ochilishining birinchi tashabbuskorlaridan bo‘lgan ma‘rifatparvar adib Sadriddin Ayniyning bosib o‘tgan mashaqqatli hayot yo‘li va o‘rni kattadir. Uning “Tarixi amironi mang‘itiyai Buxoro” (“Buxoro mang‘it amirlari tarixi”) va “Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar” kabi tarixiy asarlarida va ayrim ilmiy – publisistik maqolalarida Buxoro jadidlari tomonidan tashkil etilgan, o‘z ichiga iste‘dodli yoshlarni birlashtirgan Yosh buxoroliklar tashkilotining Buxoro maorifparvarlik va taraqqiyparvarlik tarixidagi o‘rni, namoyandalari, uning siyosiy – ijtimoiy faoliyati to‘g‘risida muhim ma‘lumotlarni keltirib o‘tadi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / METHODS)

Abdulvohid Munzimning hayoti va ijodini o'rganishda ilmiy manba va asarlar ularning tahlilida quyidagicha manbaviy tadqiqotlarga bo'linadi:

1. Amirlik davridagi yaratilgan ilmiy manbalar. 2. Sovet davrida yaratilgan ilmiy tadqiqotlar. 3. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda nashr etilgan tadqiqotlar. 4. Xorijda yaratilgan tadqiqotlar. Shuningdek, mavzu to'g'risidagi ma'lumotlarni tojik olimi Sohib Tabarov asarlarida ham uchratamiz.

### **TAHLIL VA NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ / ANALYSIS AND RESULTS)**

Abdulvohid Munzim, Mukammil Burhonov, Sadridin Ayniy, Usmonxo'ja Po'latxo'jayev (Usmon Xo'ja), Otaulla Xo'jayev, Ahmadjon Hamdiy (Abdusaidov), Homidxo'ja Mehriy, Musa Saidjonov, Mirzo Siroj Hakim Yosh buxoroliklarning dastlabki tashkilotchilari edi. Keyinchalik uning faoliyatida Fitrat, Fayzulla Xo'jayev va Muhiddin Mansurov katta rol o'ynashdi", deb yozadi tarixchi olim Q.Rajabov.

Ma'rifatparvar shoir, davlat va jamoat arbobi Mirzo Abdulvohid Burhonov 1875 yili Buxoroda tavallud topadi. Dastlabki ta'limni eski maktabda oladi. XIX asrning 90-yillaridan Abdulvohid Burhonov Munzim taxallusi bilan ma'rifiy she'rlar yoza boshlaydi, keyinchalik esa amaliy faoliyatida ham ma'rifatparvarlik bilan shug'ullanadi. XX asrning birinchi o'n yilligida Munzim yangi usuldagi maktab ochish uchun harakat qila boshlaydi. Buxorodagi dastlabki jadid maktabining ochilishi ham uning nomi bilan bog'liq. U 1908 yili Samarqandga borib, jadid maktablaridagi o'qitish uslubini Mahmudxo'ja Behbudiy va Abduqodir Shukuriydan o'rganadi va shu yili o'z hovlisida jadid maktabi, 1909 yilda esa katta yoshdagilar uchun kechki maktab tashkil etadi. Bu haqda muallifning o'zi quyidagi muhim ma'lumotlarni keltirib o'tadi: "1326 yil hijriyda, shavval oyi o'nida (1908 yil oktyabrda) Buxoro shahri ichida darvozai Sallohxona guzarida Mirzo Abdulvohid Munzim uyida forsiy tilida birinchi marta buxoroliklarga maxsus usuli jadida maktabini ochdik".

Ma'rifatparvar adib Sadridin Ayniy o'zining "Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar" asarida Buxoroda shakllangan ma'rifatparvarlik harakatining dastlabki

vakillari haqida shunday yozadi: “Ochiq fikrlilarning dastlabki mashhur namoyandalari, yoshlar va yosh fikrlilar ediki yangi maktab atrofida jam bo‘lgan edilar”, deb yozadi, Ayniy. Buxoroda dastlabki ochiqfikrlilar quyidagi kishilar bo‘lgan: Abdulvohid Munzim, Mirzo Muhiddin va uning o‘g‘illari Mirzo Isomiddin va Mirzo Abduqodir, Ahmadjon Maxdum Hamdiy, Mirzo Izatullo, mudarris Abdulqodir Maxdum, Bo‘riboy va o‘g‘li Mirzo Mustafoqul, Jahongirbek qorovelbegi, Mullo Mirxon Porsozoda, Mazhar Maxdum, Mukammil Maxdum, tatar Mulla Nizom Sobitiy, Mirzashoh Foiz, Hamidxoja Mehriy, Mirzo Ismoil Attor, G‘ulomrizo qorovulbegi, Usmonxo‘ja Po‘latxo‘ja o‘g‘li, Mullo Ochil va uning o‘g‘li Mullo Boqiy. “Ularning hamma ishlarga doim yordam berib yurganlardan biri, bu satrlarning yozuvchisi Sadridin Ayniy ham bor edi”.

Buxoroda 1909 yildan shakllangan jadidlar tashkiloti avval ma’rifatparvarlik ishlarini olib bordi. Munzim bu tashkilotishiga faol qatnashib, shu yili Mukammil Burhonov, Sadridin Ayniy bilan birgalikda bilan «Tarbiyayi atfol» («Bolalar tarbiyasi») maxfiy jamiyatini tuzishda ishtirok etdi. Bu jamiyat buxorolik ma’rifatparvarlar va hur fikrli ziyolilar o‘rtasida ilg‘or demokratik g‘oyalarni targ‘ib etib, xalqning siyosiy ongini uyg‘otishda katta ahamiyat kasb etdi.

1917 yil fevral inqilobidan so‘ng Buxoro jadidlari A.Burhonov boshliq eski jadidlarga, F.Xo‘jayev va A.Fitrat boshliq yangi jadidlarga bo‘linadi. Birinchi guruhning asosiy faoliyati ma’rifatparvarlik bo‘lsa, ikkinchi guruh keng islohotlar tarafdori edi. Keyinchalik bu ikki guruhning birlashuvi natijasida «Yosh buxoroliklar» partiyasi tuzilib, Munzim unga rais etib saylanadi.

Yangi ziyolilarning qarashlarida eng avvalo, aholining barcha ijtimoiy qatlamlari orasida hukm surgan savodsizlikni tugatish, eski ta’lim tizimini isloh qilish, qoloq, eski va behuda odatlarga chek qo‘yish singari maqsadlar ilgari surildi. Tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra ular, ayniqsa diniy mutaassiblik, behuda sarf-harajatlarga olib keluvchi an’anaviy odatlarga tanqidiy yondashgan. Agar bunday qarashlar debochasini Ahmad Donish kabi ma’rifatparvarlar boshlab bergan bo‘lsa, ularning g‘oya va qarashlarini

Sadriddin Ayniy, Abdulvohid Munzim, Mirkomil Burxonov, Usmonxo‘ja Po‘latxo‘jayev, Xolidxoji Mehri, Mulla Vafo, Abdurauf Fitrat rivojlantirdi.

1918 yildan 1920 yilning sentyabrigacha Munzim Toshkentda yashaydi. Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tuzilgach, u avval Markaziy ijroiya qo‘mitasi raisining o‘rinbosari, keyinchalik Xalq maorifi noziri, Sog‘liqni saqlash noziri lavozimlarida ishlaydi. Xalq maorifi noziri lavozimida ishlagan Munzim 1922 yil iyunida milliy kadrlar, xususan, muhandislar tayyorlash maqsadida bir guruh buxorolik yoshlarni Germaniyaga yuborish to‘g‘risidagi BXSR hukumati qarorining qabul qilinishiga katta hissa qo‘shadi. Shu qarorga asosan, u mazkur ishni tashkil etish bo‘yicha komissiya raisi etib tayinlangan edi. 1922 yilning yozida Munzimning shaxsan o‘zi buxorolik 44 kishini Germaniyaga olib borib, Berlindagi o‘quv yurtlariga joylashtiradi.

1920 yillarning o‘rtalaridan boshlab Munzim o‘zini tamoman ijodiy va publisistik faoliyatga baxshida etadi. 30-y. boshida «Tojikistoni surx» gazetasida ishladi. Abdulvohid Munzim 1934 yilda uzoq davom etmagan kasallikdan so‘ng Dushanbeda vafotetadi.

### XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION)

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Abdulvohid Munzim Yosh buxoroliklar faoliyatida muhim faolit olib bordi. Yosh buxoroliklar XX asr boshlarida Buxoro amirligida juda katta miqyosdagi siyosiy islohotlarni amalga oshirish uchun faoliyat ko‘rsatdilar. Buxoro taraqqiyparvarlarining amirlik tuzumi sharoitida ma‘rifat uchun kurashi ham diqqatga sazovordir. Ular yangi usul (jadid) maktablari tashkil qilishdi, gazeta va jurnallar chop etishdi

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. С.Айний. Бухоро инқилоби тарихи учун материаллар.
2. Айний С. Тарихи амирони манғитияи Бухоро. – Тошкент: Туркистон давлат нашриёти, 1923.
3. Ражабов Қ. Ёш бухороликлар. // Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Т. 3. Т: ЎзМЭ нашриёти, 2002.

4. Iskandarovich, R. O. (2022). Historical Architectural Complex of the Chor (Pers. Four) Bakr Ensemble. *Telematique*, 6886-6890.
5. Rajabov, O. (2020). Qizbibi va Hazrat Bibi manzilgohlari muqaddas qadamjo sifatida. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 1(1).
6. ISKANDAROVICH, R. O. (2021). BUKHARA ISLAMIC SCHOLARS VIII-XII CENTURIES. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 1(4), 42-48.
7. Sherzod, O. (2022). ILLUMINATION OF ISSUES OF THE HISTORY OF TURKESTAN IN THE WORKS OF THE HISTORIAN POLAT SOLIEV. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 2(6), 37-41.
8. Sherzod O'ktam o'g, N. (2023). TARIXCHI OLIM PO 'LAT SOLIYEV ILMIY ME'ROSIDA TURKISTON TARIXIGA OID AYRIM MASALALAR. *Innovations in Technology and Science Education*, 2(7), 1283-1290.
9. Nosirov, S. (2022). BUXORO AMIRLIGI MAORIF TIZIMIDA YANGI USUL-JADID MAKTABLARINING FAOLIYATI (S. AYNIY XOTIRALARI ASOSIDA). *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 26(26).
10. Nosirov, S. (2022). Sadriddin Ayniy asarlari buxoro inqilobini tarixini o'rganuvchi manba sifatida. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 26(26).
11. Nosirov, S. (2022). SADRIDDIN AYNIYNING 1917-1920-YILLARDAGI TARIXIY JARAYONLAR BORASIDAGI QARASHLARI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 26(26).
12. Nosirov, S. (2022). САДРИДДИН АЙНИЙ-АХМАД ДОНИШ ҲАҚИДА. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 26(26).
13. Maqsud, B. (2021). Buxoro bozorlari. panjakent-2021. treasury of.



14. Beshimov, M. (2020). BERUNIY "QADIMGI XALQLARDAN QOLGAN YODGORLIKLAR" ASARINING AHAMIYATI. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 6(2).
15. Beshimov, M. (2021). ТАРИХ ЎҚИТИШ МЕТОДЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ТУРКУМЛАНИШИ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 6(6).
16. Beshimov, M. (2022). ABDULVAHID MUNZIM-ENLIGHTENED POET, STATE AND PUBLIC FIGURE. International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences, 2(6), 52-56.
17. Beshimov Maqsud Komilovich, Buxoro tarixi kafedrası o'qituvchisi, Buxoro Davlat Universiteti. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (6), 15-17.
18. Beshimov, M. (2022). MANG 'ITLAR DAVRIDA BUXORODA MADANIY HAYOT (me'morchilik, adabiyot va san'at). ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 20(20).
19. BESHIMOV, M. (2022). Amir Said Alimkhan and Young Bukhara residents. International Journal of Intellectual Cultural Heritage, 2(2), 78-83.
20. Beshimov, M. (2021). Mang'itlar davrida Buxoroda madaniy hayot. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 7(7).
21. Beshimov, M. (2022). ABDULVAHID MUNZIM-ENLIGHTENED POET, STATE AND PUBLIC FIGURE. International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences, 2(6), 52-56.
22. Темиров, Ф., & Умаров, Б. (2021). БУХОРО АМИРЛИКДА ОИЛА, НИКОҲ ВА МЕРОС ҲУҚУҚИНИНГ АМАЛДА ҚЎЛЛАНИШИ. Scientific progress, 2(1), 1201-1207.
23. T. F., & UMIDA, X. (2022). PUBLISHING AND LIBRARY ACTIVITIES OF THE TURKESTAN JADIDS. International Journal of Intellectual Cultural Heritage, 2(1), 26-31.

24. Темиров, Ф., & Исломов, Д. (2021). САДРИДДИН АЙНИЙ–ЗАМОНДОШИ ФИТРАТ ҲАҚИДА. *Scientific progress*, 2(1), 1349-1354.

25. Темиров, Ф., & Халикова, Н. (2021). БУХОРО АМИРЛИГИДА ТАШҚИ СИЁСАТ ВА ДИПЛОМАТИЯНИНГ РИВОЖЛАНИШИ ТАРИХИДАН. *Scientific progress*, 2(1), 1276-1282.

26. Mubinov Muhammadali. Foreign trade relations of the Bukhara emirate.// *EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH*. Volume 1 Issue 8, November 2021. –P.287-290.

27. Мубинов М.А. Культурные аспекты жизни и специфические качества ремесла Бухарского эмирата и русско-европейское влияние на эмират (в XIX-XX веках). *International Journal of Intellectual and Cultural Heritage* Volume: 2 Issue: 02 | 2022 ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314. –С.176-179.

28. Мубинов М.А. Дипломатические и посольские отношения среднеазиатских ханств с Османской империей.// *ВЕСТНИК ХОРЕЗМСКОЙ АКАДЕМИИ МАЪМУНА* –1/2021. Стр.116-119.

29. MUBINOV M.A. Bukhara emirate at the center of trade and economic relations (based on the works travelers). // *International Journal of Intellectual and Cultural Heritage* Volume: 2 Issue: 06 | 2022 ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314

30. Мубинов М.А. Специфические связи ремесла с культурной жизнью в Бухарском эмирате (XIX-XX века)// *RESEARCH ON SOCIAL AND* Volume: 01. Issue:01/Jan-2023